

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

MARUFOV OYBEKJON UKTAMOVICH

**YERGA OID HUQUQIY MUNOSABATLARDAN KELIB CHIQUADIGAN
ISHLARNI SUDDA KO'RISHNING PROTSESSUAL XUSUSIYATLARI**

12.00.04 – Fuqarolik protsessual huquqi. Iqtisodiy protsessual huquqi. Hakamlilik jarayoni
va mediatsiya

**yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy)
dissertatsiyasi AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Content of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)

Marufov Oybekjon Uktamovich

Yerga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlarni sudda ko‘rishning protsessual xususiyatlari..... 6

Маруфов Ойбекжон Уктамович

Процессуальные особенности рассмотрения судом дел, возникающих из земельных правоотношений.....19

Marufov Oybekjon Uktamovich

Procedural features of court consideration of cases arising from land-related legal relations34

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 50

MARUFOV OYBEKJON UKTAMOVICH

**YERGA OID HUQUQIY MUNOSABATLARDAN KELIB
CHIQUADIGAN ISHLARNI SUDDA KO'RISHNING PROTSESSUAL
XUSUSIYATLARI**

12.00.04 – Fuqarolik protsessual huquqi. Iqtisodiy protsessual huquqi. Hakamlik jarayoni
va mediatsiya

**yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Yu1235 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sayti (www.tsul.uz) va “Ziyonet” axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Mamasiddiqov Muzaffarjon Musajonovich
yuridik fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Aminjonova Matluba Axmedovna
yuridik fanlar doktori, professor

Avezov Qosim Safarovich
yuridik fanlari bo‘yicha falsafa doktori,
dotsent v.b.

Yetakchi tashkilot:

O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 13-sentabr 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100047, Toshkent sh., Sayilgoh ko‘chasi, 35. Tel.: (99871) 233-66-36; faks: (998971) 233-37-48; e-mail: info@tsul.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1417-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent sh., Amir Temur ko‘chasi, 13. Tel.: (99871) 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 25-avgust kuni tarqatildi.
(2025-yil 25-avgustdagi 86-raqamli reyestr bayonnomasi).

I.R. Rustambekov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori, professor

D.Y. Xabibullayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, yuridik fanlar doktori, professor

B.K. Xodjayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori, professor

Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda jamiyat hayotida yer asosiy tabiiy resurslardan biri bo'lib, insonlar o'rtasidagi iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va madaniy munosabatlarni belgilab beradi. Yer masalasi har qanday mamlakatning konstitutsiyaviy tamoyillari, qonun hujjatlari hamda an'anaviy urf-odatlar bilan chambarchas. Shu sababli yer bilan bog'liq nizolarni adolatli, tezkor va samarali hal etish masalasi har qanday davlat siyosatining muhim yo'nalishi hisoblanadi. Shahar va qishloqlarning o'zaro integratsiyasi va uning rivojlanishi, fuqarolar va yuridik shaxslar o'rtasidagi yerga doir huquqiy munosabatlarning faollashishi yerga oid nizolarning bosqichma-bosqich ko'payib borishiga sabab bo'ldi va o'z navbatida zamonaviy jamiyatdagi berqarorlik, nizolar va mojarolarning e'tiborli nuqtasiga aylandi.¹ Jahon banking tahlillariga qaraganda, 2030-yilga borib, yer yuzidagi eng qashshoq aholining uchdan ikki qismi berqarorlik, nizolar va zo'ravonlik ta'sir etgan hududlarda istiqomat qilishi taxmin qilinmoqda. Bundan tashqari, gumanitar ehtiyojlarning 80 foizi aynan nizolar sababli kelib chiqadi.²

Jahonda yer bilan bog'liq kelishmovchiliklar va bu bo'yicha munozaralar uzoq vaqtdan beri davom etib keladi. Yer masalasi shaxsiy mulk huquqiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi, qolaversa, yerning yetishmasligi sababli fundamental muammoga aylandi.³ Bu holat, ayniqsa, yer xususiy mulk sifatida tan olinadigan mamlakatlarda yanada ko'proq dolzarblik kasb etadi.⁴ Qolaversa, yerning iqtisodiy qiymati bilan birga, uning ijtimoiy, madaniy va diniy qiymatlari ham mavjuddir. Shuning uchun ham yer uchastkalarini olib qo'yish va umuman yerga oid nizolarni sudda va suddan tashqari hal qilishning samarali usullarini joriy etish masalalarini ilmiy va amaliy jihatdan tadqiq etish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Yangi O'zbekistonni barpo etishning tamal toshi qo'yilgan 2017-yildan keyingi davrda yer munosabatlarini faol qayta shakllantirish bosqichi boshlandi. 2019-yildan boshlab O'zbekistonda yerga xususiy mulk huquqi joriy etildi. Shu yildan boshlab jismoniy va yuridik shaxslarga o'z yer uchastkalarini (noqishloq xo'jalik yerlari) xususiylashtirish imkoniyati yaratildi. Bundan tashqari, Farmonda xususiylashtirilgan yer uchastkalari xususiy mulk va fuqarolik muomalasi obyektlari ekanligi, ularga bo'lgan xususiy mulk huquqi daxlsiz va O'zbekiston Respublikasining "Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq davlat tomonidan himoya qilinishi belgilab qo'yilgan.⁵ Bu esa o'z navbatida sudlar tomonidan yerga doir nizoli ishlarda taraflarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini samarali himoya qilish,

¹ **Қаранг:** Земельные реформы: опыт стран мира и Узбекистана. Институт прогнозирования и макроэкономических исследований. Июль, 2022. // <https://imrs.uz/files/publications/ru/626795.pdf>

² <https://www.vsemirnyjbank.org/ru/topic/fragilityconflictviolence/overview>

³ Karol Boudreaux. Land and Conflict // <https://www.land-links.org/issue-brief/land-disputes-and-land-conflict/>

⁴ Olivier De Schutter. The Role of Property Rights in the Debate on Large-Scale Land Acquisitions// <https://journals.openedition.org/poldev/2026>; Laurence Roudart and Marcel Mazoyer. Large-Scale Land Acquisitions: A Historical Perspective // <https://journals.openedition.org/poldev/2088>

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-yanvardagi "Urbanizatsiya jarayonlarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5623-son Farmoni // <https://lex.uz/docs/4154818>

ushbu murakkab toifadagi nizoli ishlar bo'yicha odil sudlovni amalga oshirish kabi muhim vazifalarni yuklaydi. Shu o'rinda fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarning 2024-yil faoliyat yakunlarining asosiy ko'rsatkichlariga qaraganda, fuqarolik ishlar bo'yicha sudlar tomonidan birinchi instansiyada ko'rilgan ishlar (sud buyruqlari bilan birga) 1 497 184 tani tashkil etadi. Taqqoslash uchun, 2022-yilda ushbu ko'rsatkich 863 883 tani tashkil qilgan bo'lsa, 2023-yilda 943 892 tani tashkil qilgan. Fuqarolik ishlar bo'yicha sudlar tomonidan birinchi instansiyada ko'rilgan yer bilan bog'liq ishlar yuzasidan statistik ma'lumot shuni ko'rsatadiki, 2024-yilda ushbu toifadagi ishlar 18059 tani tashkil qilgan. Vaholanki, birgina 2022-yilda fuqarolik ishlar bo'yicha sudlar tomonidan birinchi instansiyada ushbu toifadagi ko'rilgan ishlar jami 10 377 tani tashkil etgan.¹ Bu esa, ushbu toifadagi nizoli ishlarning soni yildan-yilga ortib borayotganligini ko'rsatadi. Sud amaliyotida yerga oid nizoli ishlarning tobora ortib, turli ko'rinish hosil qilayotganligi hamda mazkur masala turli qonun hujjatlari bilan tartibga solinishi, o'z navbatida fuqarolik protsessual huquq nazariyasida, shu jumladan huquqni qo'llash amaliyotida hal etilishi zarur bo'lgan qator muammolarni yuzaga keltirmoqda. Yerga oid nizolar turli moddiy huquq normalarida nazarda tutilsa-da, lekin u da'vo shaklida fuqarolik sud ishlarini yuritish tartibida ko'rib hal etiladi. Sud muhokamasining predmeti hisoblangan yerga oid ishlarda ishtirok etuvchi sub'ektlar tarkibini aniqlash, ish bo'yicha isbotlash va dalillar masalasini hal etish, protsessual huquqlarni amalga oshirish, bularning barchasi mazkur toifadagi nizoli ishlarni sudda ko'rishning o'ziga xos protsessual xususiyatlarini aniqlashni va bu borada ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishning dolzarbligini belgilab beradi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (1992, 2023), Fuqarolik kodeksi (1996), Yer kodeksi (1998), Fuqarolik protsessual kodeksi (2018), "Sudlar to'g'risida"gi Qonun (2021)", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi (2017), "O'zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (2017), "Yerdan oqilona foydalanish va muhofaza qilishni nazoratini kuchaytirish, geodeziya va kartografiya faoliyatini takomillashtirish, davlat kadastrlarini yuritishni tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (2017), "Urbanizatsiya jarayonlarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (2019), "2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi (2022) Farmonlari, "Yer uchastkalaridan foydalanishda davlat nazorati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (2022) Qarori va mavzuga oid boshqa qonun hujjatlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion

¹ <https://stat.sud.uz/assets/uploads/civil/pdf/civil-2024-6.pdf>

g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Yerga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlarni sudda ko'rishning protsessual xususiyatlariga bag'ishlangan dissertatsiya mavzusi shu kunga qadar O'zbekistonda mustaqil tadqiqot ob'ekti bo'lib maxsus monografik tadqiqot ob'ekti sifatida tadqiq qilinmagan. Xususan, Sh.Sh.Shoraxmetov, E.Egamberdiev, S.A.Yakubov, M.M.Mamasiddiqov, Z.N.Esanova, D.Yu.Xabibullaev, S.A.Maripova, X.A.Kuchqarov va M.M.Tajiboev kabi olimlarning tadqiqot ishlarida ayrim toifadagi fuqarolik ishlarini sudda ko'rishning protsessual xususiyatlari bilan bog'liq masalalar u yoki bu darajada yoritilgan. Masalan, M.M.Mamasiddiqov tomonidan mehnatga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizoli ishlarni sudda ko'rishning nazariy va amaliy masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlar amalga oshirilganligini alohida ta'kidlash lozim. Huquqshunos olim mehnatga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizoli ishlarni sudda ko'rishning protsessual xususiyatlari hamda mehnatga oid yetkazilgan moddiy va ma'naviy zararni sudda undirishning nazariy va amaliy muammolarini chuqur tadqiq etgan. Shuningdek, professor Z.N.Esanova bolalar tarbiyasi bilan bog'liq nizoli ishlarni sudda ko'rishning o'ziga xos protsessual xususiyatlarini tadqiq etib o'rgangan. Professor E.Egamberdiev sud ishlarini yuritishda huquqni himoya qilishning protsessual vositalarini tadqiq etgan, fuqarolik protsessida taraflar ishtirokiga oid ayrim masalalar S.A.Yakubov, fuqarolik sudida ish ko'rishda tamoyillarni qo'llash masalalari D.Yu.Xabibullaev tomonidan o'rganilgan.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda fuqarolik va ekologiya huquqi fanlari doirasida yer nizolarini hal qilish sohasini tadqiq etishga qaratilgan qator ilmiy ishlar amalga oshirilganligi e'tiborga loyiq. Xususan, Usmonov M.B., Mirzaabdullaeva M.R., Uzakova G.Sh., Sh.Boyoqulov, A.A.Jumanovlarning ilmiy ishlarida yerga oid huquqiy munosabatlarni huquqiy ta'minlash masalalari ekologiya huquqi doirasida o'rganilgan. Xususan, A.A.Jumanov yer nizolarini huquqiy tartibga solishni takomillashtirishga qaratilgan o'zining yuridik fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozgan dissertatsiya ishida yer nizolari tushunchasi va uning umumiy tavsifi, yer nizolarining vujudga kelish asoslari va sabablari, yer nizolarini hal etish bo'yicha sud amaliyoti masalalariga to'xtalib, ushbu dissertatsiya ishini 2008-yilda o'sha davrdagi "12.00.06 – Qishloq xo'jalik huquqi; yer, suv, o'rmon va tog'-kon huquqi; ekologiya huquqi" ixtisosligi doirasida himoya qilgan. Shuningdek, ekologiya sohasida davlat nazoratining huquqiy tahlili B.X.Kalonov, yer to'g'risidagi qonun hujjatlarining ijrosi ustidan prokuror nazoratini takomillashtirish masalalari M.T.Abduhakimov, yerlardan foydalanish va muhofaza qilish sohasidagi jinoyatlar uchun javobgarlikni takomillashtirish masalalari F.N.Mardonovning tadqiqot ishida o'rganilgan.

Yerga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlarni sudda ko'rishning protsessual xususiyatlari bilan bog'liq masalalar xorijiy davlatlarning qator olimlari tomonidan ham o'rganilganligini ta'kidlash joiz. Xususan, A.R.Yemaltımov "Yer nizolarini sudda ko'rishning protsessual xususiyatlari", Ya.S.Grishina "Yerga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizosiz ishlar

bo'yicha sudda ish yuritish", G.A.Sveshnikov "Yerga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizoli ishlarni da'vo tartibida ko'rish" mavzularida tadqiqot ishlarini amalga oshirgan.

Ali Kombo Khamis ning 2022-yil dekabrda Arusha buxgalteriya institutida yozgan "Tanzaniyada yer nizolarini hal etishda Vard Tribunallarining samaradorligini baholash: Karitu tumani misoli" nomli dissertatsiyasida Vard Tribunallarining yer nizolarini hal etishdagi samaradorligi o'rganilgan. Shuningdek, Madeha Upendo E o'zining "Yer nizolarini maxsus yer sudlarida hal qilish zaruratiga baho berish" mavzusidagi dissertatsiya ishida Tanzaniyada yer nizolarini hal qilishga ixtisoslashgan sudlarning samaradorligini baholash bo'yicha tadqiqotlarni amalga oshirgan.¹

Bugungi kunda yuqoridagi tadqiqotlar, shubhasiz, yerga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlarni sudda ko'rishning protsessual xususiyatlari takomillashtirishda muhim nazariy poydevor vazifasini o'taydi. Biroq ko'rib turganimizdek, mamlakatimizda yerga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlarni sudda ko'rishning protsessual xususiyatlari mavzusida mamlakatimiz olimlari tomonidan kompleks tadqiqotlar olib borilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi Toshkent davlat yuridik universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida olib borilgan "Yerga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlarni sudda ko'rishning protsessual xususiyatlari" (2022–2025) ilmiy loyihasi doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi sudlarda yerga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlarni ko'rish va hal etish bilan bog'liq muammolarni aniqlash hamda xorijiy mamlakatlar tajribasini qiyosiy-huquqiy tahlil qilish orqali mazkur muammolarni hal etishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

- yer nizolarining tushunchasi va uning huquqiy tabiati masalalarini tahlil etish;
- yerga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan fuqarolik ishlarining taalluqliligi va sudlovga tegishliligi masalalari o'rganish;
- yerga oid fuqarolik ishlarida ishtirok etuvchi shaxslar va ularning huquqiy maqomini tadqiq etish;
- yerga oid ishlarda isbotlash va dalillarni qo'llash masalalari tadqiq etish;
- yer bilan bog'liq fuqarolik ishlari yuzasidan sud hujjatlari va ularning o'ziga xos jihatlarini o'rganish;
- yerga oid fuqarolik ishlari bo'yicha sud hal qiluv qarorlarini ijro etish bilan bog'liq masalalarni tahlil qilish;

sudda yerga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlarni ko'rishni takomillashtirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti yerga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan fuqarolik ishlarini sudda ko'rish va hal etish sohasida yuzaga kelgan ijtimoiy

¹ Mazkur olimlar ishlarining to'liq ro'yxati dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida ko'rsatilgan.

munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning predmetini yerga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan fuqarolik ishlarini sudda ko'rish va hal etish tartibini belgilovchi fuqarolik, yer va fuqarolik protsessual qonunchiligi, boshqa qonun va qonun osti normativ-huquqiy hujjatlar, ularni qo'llash bo'yicha sud amaliyoti, shuningdek xorijiy mamlakatlar qonunchiligi va tajribasi, yuridik fanda mavjud konseptual yondashuvlar, ilmiy-nazariy qarashlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari tadqiqot olib borish jarayonida qiyosiy-huquqiy tadqiqot, mantiqiy, tahliliy, tarixiy, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish, huquqni qo'llash amaliyoti xodimlari bilan so'rovlar o'tkazish, milliy normalarni sharhlash, sud amaliyotiga oid materiallarni umumlashtirish hamda statistik ma'lumotlar tahlili uslubidan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida yerga oid huquqiy munosabatlar bilan bog'liq ishlar bo'yicha prokurorning sudga murojaat qilishga haqli bo'lishi va ushbu toifadagi ishlarni sudda qonuniy, asosli va adolatli ko'rilishiga ko'maklashish maqsadida prokuror o'z tashabbusi bilan ishda ishtirok etishi mumkinligini fuqarolik protsessual qonunchilikda belgilash asoslantirilgan;

yerga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizoli ishlarni sudda qo'zg'atishning o'ziga xos xususiyatlarini, jumladan, ushbu toifadagi ishlar bo'yicha sudga murojaat qilish tartibi, da'vo arizasining mazmuni, da'vo arizasiga ilova qilinadigan hujjatlar ro'yxati bilan bog'liq normalar fuqarolik protsessual qonunchilikda o'z ifodasini topishi ilmiy asoslantirilgan;

o'zboshimchalik bilan egallab olingan, davlat mulkida bo'lgan yer uchastkasini qaytarish, o'zboshimchalik bilan qurilgan imoratni buzib tashlash to'g'risidagi ishlarni sudda muhokama qilish xususiyatlari va muddatlari, ish yuzasidan chiqariladigan sudning hal qiluv qarori bilan bog'liq normalar fuqarolik protsessual qonunchilikda o'z ifodasini topishi ilmiy asoslantirilgan;

yerga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan boshqa turkumdagi nizolardan farqli ravishda o'zboshimchalik bilan egallab olingan, davlat mulkida bo'lgan yer uchastkasini qaytarish, o'zboshimchalik bilan qurilgan imoratni buzib tashlash to'g'risidagi ishlar bo'yicha kelishuv bitimi yoki mediativ kelishuv tuzilishiga yo'l qo'yilmasligini qonunlikda belgilash asoslantirilgan;

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining "Sudlarda o'zboshimchalik bilan egallab olingan, davlat mulkida bo'lgan yer uchastkasini qaytarish, o'zboshimchalik bilan qurilgan imoratni buzib tashlash to'g'risidagi ishlarni ko'rishda qonunchilik hujjatlari normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi qarori loyihasi ishlab chiqildi.

O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksida yerga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan fuqarolik ishlarini taraflar tomonidan hal qilish uchun hakamlik sudiga ham taqdim etilishi mumkinligi haqidagi norma belgilash taklif qilindi.

Davlat va jamiyat manfaatlarini himoya qilish maqsadida yerga oid nizoli

ishlarda prokuror ishtirokining majburiyligini nazarda tutuvchi normani mamlakatimiz fuqarolik protsessual qonunchiligiga kiritish taklif qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 2015-yil 17-noyabrdagi "Sudlarda fuqarolik ishlari ko'rilishida prokuror ishtirokining samaradorligini yanada oshirish to'g'risida"gi 124-son buyrug'ida yerga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan fuqarolik ishlarida prokuror ishtirokining majburiyligi haqida ko'rsatma berilishi taklif qilinadi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Ushbu tadqiqot natijalari milliy qonunchilik va xorijiy davlatlarning qonunni qo'llash tajribasini o'rganish asosida hamda statistik ma'lumotlarni tahlil qilish natijalari umumlashtirilib, tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan hamda olingan xulosa, taklif va tavsiyalar aprotatsiyadan o'tkazilib, erishilgan natijalarining yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e'lon qilingan, amaliyotga joriy qilinganligi vakolatli organlar tomonidan tasdiqlangan. Bundan tashqari, tadqiqot ishida Olingan natijalar vakolatli tashkilotlar tomonidan ma'qullangan va amaliyotga joriy qilingan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati fuqarolik, fuqarolik protsessual va yer huquqi fanlari nazariyasini sud orqali himoya qilish, sudda ish ko'rishning protsessual xususiyatlari, inson huquqlarini sud orqali himoya qilish kabi yangi tushunchalar bilan boyitilishida namoyon bo'ladi. Taklif va tavsiyalar kelgusida tadqiqot ishlarini tashkil etish, normativ-huquqiy hujjatlar, mamlakatimiz Oliy sudi Plenumi qarorlarini hamda qonunchilik normalariga sharhlar tayyorlashda hisobga olinishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati fuqarolik, fuqarolik protsessual va yer huquqi, yerga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan fuqarolik ishlarini sudda ko'rishning protsessual xususiyatlari, ayrim turkumdagi fuqarolik ishlarini sudda ko'rishning protsessual xususiyatlari kabi modullarini o'qitish, sud, prokuratura va advokatlar uchun, shuningdek mediatorlar uchun amaliy qo'llanmalar tayyorlash, Oliy sud Plenumi qarorlarini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqot ishi bo'yicha olingan ilmiy natijalardan quyidagilarda foydalanilgan:

davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida yerga oid huquqiy munosabatlar bilan bog'liq ishlar bo'yicha prokurorning sudga murojaat qilishga haqli bo'lishi va ushbu toifadagi ishlarni sudda qonuniy, asosli va adolatli ko'rilishiga ko'maklashish maqsadida prokuror o'z tashabbusi bilan ishda ishtirok etishini fuqarolik protsessual qonunchilikda belgilash taklifi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 30-sentabrdagi O'RQ-968-sonli Qonuniga asosan O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi 50-moddasiga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarda o'z ifodasini topgan (O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 2025-yil 5-martdagi 27/2-41-25-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning qabul qilinishi davlat manfaatlarini himoya qilish maqsadida yerga oid nizoli ishlarda prokuror ishtirokini ta'minlash va huquqi buzilgan shaxslarning sud orqali himoya huquqini qo'shimcha ravishda kafolatlashga asos bo'lgan;

yerga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizoli ishlar bo'yicha sudga murojaat qilish tartibi, da'vo arizasining mazmuni, da'vo arizasiga ilova qilinadigan hujjatlar ro'yxatini fuqarolik protsessual qonunchilikda aniq belgilash haqidagi takliflar

O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 15-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga yer uchastkalaridan samarali foydalanish, sohadagi huquqbuzarliklarning oldini olish mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-997-sonli Qonuning 4-moddasi (O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksiga kiritilgan 23²-bob (2706-27010-moddalar)da o‘z ifodasini topgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2025-yil 7-martdagi 3/dn-48-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning qabul qilinishi ushbu toifadagi nizoli ishlar yuzasidan sudda ish qo‘zg‘atishning asosli bo‘lishi bilan birga, sudga murojaat qiluvchi taraflarga o‘z da’vo arizalarini to‘g‘ri rasmiylashtirishga xizmat qilgan;

yerga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizoli ishlarni sudda muhokama qilish xususiyatlari va muddatlari, ish yuzasidan chiqariladigan sudning hal qiluv qarori bilan bog‘liq normalar fuqarolik protsessual qonunchilikda o‘z ifodasini topishi haqidagi takliflar O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 15-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga yer uchastkalaridan samarali foydalanish, sohadagi huquqbuzarliklarning oldini olish mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘ri-sida”gi O‘RQ-997-sonli Qonuning 4-moddasi (O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksiga kiritilgan 23²-bob (2706-27010-moddalar)da o‘z ifodasini topgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2025-yil 7-martdagi 3/dn-48-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning qabul qilinishi natijada ushbu toifadagi nizoli ishlar yuzasidan sudning qonuniy, asosli va adolatli hal qiluv qarorini chiqarishga xizmat qilgan.

O‘zboshimchalik bilan egallab olingan, davlat mulkida bo‘lgan yer uchastkasini qaytarish, o‘zboshimchalik bilan qurilgan imoratni buzib tashlash to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha kelishuv bitimi yoki mediativ kelishuv tuzilishiga yo‘l qo‘yilmasligini qonunlikda belgilash taklifi O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 15-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga yer uchastkalaridan samarali foydalanish, sohadagi huquqbuzarliklarning oldini olish mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-997-sonli Qonuning 4-moddasi (O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksiga kiritilgan 23²-bob (270⁶-270¹⁰-moddalar)da o‘z ifodasini topgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2025-yil 7-martdagi 3/dn-48-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning qabul qilinishi yerga oid nizolarni sudlarda ko‘rilishida qonun ustuvorligini ta‘minlashga hamda qonunbuzarlikka yo‘l qo‘ygan shaxslar uchun jazoning muqarrarligi tamoyilini amlga oshirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta ilmiy anjumanda, jumladan 4 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 11 ta ilmiy ish, shu jumladan, 1 ta ilmiy maqola xalqaro jurnalda, 4 tasi xalqaro konferensiyada, 1 tasi HMQ Akademiyasi Axborotnomasida, 3 tasi Respublika ilmiy amaliy konferensiyada, 2 tasi Odillik mezoni jurnalida chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 8 ta paragrafni o'zida jamlagan uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 132 betni tashkil etadi.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiya ishining **kirish (dissertatsiya annotatsiyasi)** qismida tadqiqot mavzusining dolzarblik darajasi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi, tadqiq etilayotgan muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, ob'ekti va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi

va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi hamda ularning ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinganligi, aprobatsiyasi, natijalarining e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi yoritilgan.

Tadqiqotning **“Yerga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan fuqarolik ishlarining umumiy tavsifi, huquqiy tabiati, taalluqliligi va sudlovga tegishliligi masalalari”** deb nomlangan birinchi bobida yer nizolarining tushunchasi, dolzarbligi va huquqiy tabiati, yerga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan fuqarolik ishlarining taalluqliligi va sudlovga tegishliligi masalalari, yerga oid fuqarolik ishlarida ishtirok etuvchi shaxslar va ularning huquqiy maqomi masalalari tadqiq etilgan.

Muallif, avvalo yerga oid ishlarning sudda ko'riladigan murakkab toifadagi nizolar qatoriga kirishi haqida o'z qarashlarini bayon etar ekan, yerga oid huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilikning salmog'i va hajmining kattaligi hamda ko'pincha yer munosabatlarini tartibga soluvchi bir-biriga zid bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlarning mavjudligi, yer munosabatlarining o'zi ham birmuncha murakkab ekanligi, yer islohoti natijasida qonunchilikdagi tub o'zgarishlar tufayli yerga oid nizolar bo'yicha sud amaliyotining yetarli darajada rivojlanmaganligi, yerning qiymati yuqoriligi, qolaversa, yerning tabiat dunyosi ob'ekti va iqtisodiy muomaladagi mulk sifatida ikki tomonlama huquqiy tabiatga ega ekanligi bilan asoslantiradi. Qolaversa, ushbu toifadagi nizoli ishlarda bir necha da'vogar va javobgarlarning ishtirok etishi, ishda mustaqil talablari bilan arz qiluvchi uchinchi shaxslar ishtiroki, davlat va jamiyat manfaatlariga oid masalalarning etilishi ham ushbu toifadagi ishlarning murakkabligini ko'rsatadi.

Dissertant O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining “Sudlarda yerga oid nizolarni ko'rishda qonunchilik hujjatlari normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida”gi qarorida ushbu toifadagi ishlarning murakkabligini belgilovchi yuqoridagi mezonlar haqida tushuntirish berilishi ushbu toifadagi nizolarni sudda ko'rish va hal qilish jarayonida FPKning 190, 202, 203, 207, 249-moddalarida nazarda tutilgan protsessual xususiyatlarni sudlar tomonidan to'g'ri qo'llash va tatbiq etilishiga xizmat qilishi haqida xulosaga keladi.

Ishda yer nizolariga nisbatan ta'rif berish borasida huquqshunos olimlar A.A.Jumanov, A.R.Yemaltinov, B.V. Yerofeev, A.G.Bariev va

N.A.Alekseevaning fikrlari tahlili asosida dissertant yerga oid nizolarga mualliflik ta'rifini ishlab chiqadi. Unga ko'ra, yerga bo'lgan huquqlar, yer uchastkalari bilan bog'liq boshqa mulkiy va huquqiy manfaatlar, shuningdek, yerdan foydalanish, uni tasarruf etish va unga egalik qilish masalalari yuzasidan yuridik va jismoniy shaxslar, davlat organlari va boshqa manfaatdor sub'ektlar o'rtasida ularda mavjud sub'ektiv huquq va majburiyatlarini bajarish bo'yicha kelib chiqadigan kelishmovchiliklar yerga oid nizolar hisoblanadi.

Tadqiqotchi Indoneziya davlati misolida yerga oid nizolarning yuzaga kelish sabablarini tahlil qilar ekan, Indoneziyada yer bilan bog'liq nizolar hajmi boshqa nizolarga nisbatan ancha yuqori bo'lib, tuman sudlari va Oliy sud darajasidagi ishlarning 68% ni tashkil etishini,¹ yerga mulkdorlik yoki uni boshqarishdagi muvozanatning yo'qligi, qishloq xo'jaligi va noqishloq xo'jalik yerlarini nazorat qilishdagi adolatsizlik, iqtisodiy jihatdan zaif tabaqalar manfaatlariga yetarlicha e'tibor bermaslik, yerga nisbatan mahalliy aholi huquqlarining tan olinmasligi hamda yer olib qo'yish jarayonida yer egalarining huquqlari himoyasining zaifligi kabilar yer nizolari kelib chiqishining asosiy sabablari ekanligini ta'kidlaydi. Biroq 2016-yilda Indoneziyada yer ishlarini hal qilishni tartibga soluvchi maxsus huquqiy hujjatning qabul qilinishi, unda yer nizolarini hal qilish uchun boshqa barcha imkoniyatlardan foydalanilib bo'linganidan keyingina sudga murojaat qilish tartibining belgilanishi, yer nizolarini hal qilish tartib-taomillari soddalashganligi, "mag'lubiyatsiz qaror" ("win-win solution") tamoyili asosida o'zaro manfaatli kelishuvning ta'minlanganligi yer nizolari bo'yicha tezkor va har tomonlama kelishuvga erishish imkonini beradigan, shu bilan birga tomonlar o'rtasida do'stona munosabatlarni saqlab qoladigan tartibning yaratilishiga xizmat qilgan.

Mamlakatimizda ham sudlarda ko'rilayotgan fuqarolik ishlarining soni yildan-yilga ko'payib bormoqda. Masalan, 2020-yilda fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar tomonidan birinchi instansiya sudlari tomonidan ko'rilgan ishlar soni 291 132 tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilga kelib 1 497 184 tani tashkil qilgan.² Dissertant yer nizolarini tez va sifatli hal etishga yordam beradi, tomonlar o'rtasidagi nizoni hal qilish va nizolarni bartaraf etish uchun ham qulay imkoniyatlar yaratish maqsadida yer nizolarini hal qilishning suddan tashqari, o'zaro yarashtirish tartib-taomillarini qo'llash orqali hal etish amaliyotini rivojlantirish, yer nizolarini taraflar tomonidan hal qilish uchun hakamlik sudiga taqdim etilishini mamlakatimiz Yer kodeksida mustahkamlab qo'yish taklifini ilgari suradi.

Tadqiqotchi xorijiy davlatlar tajribasi tahlili asosida ayrim toifadagi yer nizolarini nazorat organlari tomonidan ma'muriy tartibda hal qilish imkoniyatini joriy etish imkoniyatini ham ko'rib chiqadi. Uning fikricha, bunday imkoniyatning ijobiy jihatlaridan biri – yer nizolarini tezkor hal etishdir. Chunki ma'muriy tartibda ish ko'rish uchun qonunchilikda ancha qisqa muddatlar belgilangan. Shuningdek, chiqarilgan qarorni ijro etish uchun tezkor tarzda ko'rsatma berish

¹ Joe Frank Simon, Franky Samosir. Execution Of Court Decisions Against Land Cases. International Asia Of Law and Money Laundering Vol. 1 No.1 March 2022.

² <https://stat.sud.uz/assets/uploads/civil/pdf/civil-2024-full.pdf>

imkoniyati yaratiladi.

Dissertatsiyada yer nizolarini ko‘rib chiqish uchun ixtisoslashgan sudlarni tashkil etish zarurati ham o‘rganilgan bo‘lib, bu sudlar AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Niderlandiya, Daniya, Shveysariya, Yangi Zelandiya, Turkiya, Kipr va boshqa bir qator davlatlarda o‘zining samaradorligini namoyon etayotganligiga urg‘u beriladi.

Tadqiqoti xorijiy davlatlar qonunchilik tajribasida yer nizolarini hal qilishga ixtisoslashgan sudlarning tashkil etilishi o‘zini oqlagan va yer munosabatlari bilan bog‘liq nizolarni ko‘rib chiqish sifatini oshirishga xizmat qilmoqda, degan xulosaga keladi. Uning fikricha, hozirgi kunda yer nizolari sonining ortib borayotgani mazkur nizolarni ko‘rib chiqish uchun qo‘shimcha organlar tashkil etish zarurligini tasdiqlaydi. Yer nizolarini hal etishda sud organlarini ixtisoslashtirish bilan birga, hakamlik sudlari va ma‘muriy mexanizmlardan foydalanish ham samarali yechim hisoblanadi.

Dissertant kelajakda yerga oid nizoli ishlarni ko‘rishga ixtisoslashgan sudlar va sudyalarning tashkil etilishi, nizolarni davlat sudlariga mqobil bo‘lgan hakamlik sudlari va ma‘muriy tartibda hal qilish imkoniyatlari va chegaralarini belgilash, o‘z navbatida Yer protsesssual kodeksini ishlab chiqishni ham taqozo etishi mumkin, degan ilmiy bashoratni ilgari suradi.

Dissertant davlatning qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida yerga oid huquqiy munosabatlar bilan bog‘liq ishlar bo‘yicha prokurorning sudga murojaat qilishga haqli bo‘lishi va ushbu toifadagi ishlarni sudda qonuniy, asosli va adolatli ko‘rilishiga ko‘maklashish maqsadida prokuror o‘z tashabbusi bilan ishda ishtirok etishi mumkinligini fuqarolik protsesssual qonunchilikda belgilash taklifini ilgari suradi.

Dissertatsiyaning **“Yerga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan fuqarolik ishlarini sudda muhokama qilishning o‘ziga xos jihatlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida yerga oid nizoli ishlarni sudda qo‘zg‘atish asoslari va tartibi, yerga oid nizoli ishlarni sud muhokamasiga tayyorlashning o‘ziga xos jihatlari, yerga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan fuqarolik ishlarini sudda muhokama qilish masalalari ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilingan.

Dissertant sudda da‘vo qo‘zg‘atishning muhim shartlaridan biri da‘vo arizalari uchun davlat bojining to‘langanligi ekanligi, davlat bojlari o‘z navbatida da‘voning bahosidan kelib chiqishini ta‘kidlab, yerga oid nizoli ishlarda da‘voning bahosini belgilashdagi ayrim muammolarni keltirib o‘tadi. Unga ko‘ra, mamlakatimiz Yer kodeksida “yerning bahosi” yoki “yerning qiymati” haqidagi normalar mavjud emasligini, qonun osti hujjatlarida ham ushbu tushunchaning normativ tushunchasi berilmaganligin, bu esa yer uchastkalarining bahosi va haqiqiy qiymatini aniqlash masalasi ochiq qolishiga, natijada sudlar tomonidan davlat bojini aniqlashda muammolar yuzaga kelayotganini ko‘rsatadi.

Tahlillar xorij (Rossiya Federatsiyasi) qonunchiligida yer uchastkasi narxining bozor, kadastr normativ kabi uchta turi nazarda tutilganligini, xorijiy davlatlar qonunchilik tajribasidan kelib chiqib, mamlakatimiz Yer kodeksi

“Yerning bahosi” deb nomlangan alohda modda bilan boyitilishi va unda yer uchastkasining bozor qiymati baholash faoliyati to‘g‘risidagi qonunga muvofiq belgilanishi, yer uchastkalarining kadastr qiymatini aniqlash uchun davlat kadastr bahosi o‘tkazilishi, mahalliy davlat hokimiyati organlari huududlardagi kadastr qiymatining o‘rtacha darajasini tasdiqlashi haqidagi norma kiritilishi taklif qilinadi. O‘z navbatida yuqoridagi normaning mamlakatimiz Yer kodeksida o‘z ifodasini topishi fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlarda yerga oid nizoli ishlar bo‘yicha da’vo bahosini aniqlashda va uning natijasida da’vo arizalari uchun undiriladigan davlat boji miqdorini aniqlashda muhim o‘rin tutadi.

Dissertant yerga oid nizoli ishlarni sudda qo‘zg‘atish bosqichida yuzaga keladigan muammolarni tahlil qilar ekan, ishlarning taalluqliligi borasida tartibning aniq belgilanmaganligi, ya’ni ba’zi hollarda ushbu nizolarni ma’muriy sudlar, boshqalarda esa fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlar ko‘rib chiqilishi, sudda ish qo‘zg‘atish vakotiga ega bo‘lgan organlar vakolatini aniqlashtirishdagi murakkabliklar, da’vo talablarini asoslantirishga xizmat qiluvchi va dav’o arizasiga ilova qilinadigan hujjatlarda muhandislik-texnik va kadastr hujjatlari ko‘pchilikni tashkil etishi kabilarni ko‘rsatadi. Uning fikricha, mamlakatimiz FPKda yerga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizoli ishlarni yuritishning o‘ziga xos xususiyatlarini nazarda tutuvchi maxsus bob kiritish va unda yerga oid nizoli ishlar bo‘yicha sudga da’vo arizasini berish tartibini alohida belgilash, unda prokuror, o‘zboshimchalik bilan qurilgan imoratlarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishni (buzib tashlashni) tashkil etish sohasidagi vakolatli davlat organi o‘zboshimchalik bilan egallab olingan, davlat mulkida bo‘lgan yer uchastkasini qaytarish, o‘zboshimchalik bilan qurilgan imoratni buzib tashlash to‘g‘risidagi da’vo arizasi bilan sudga murojaat etishga haqli ekanligini nazarda tutish lozim. Shuningdek, ushbu toifadagi nizoli ishlar bo‘yicha sudga taqdim etilayotgan da’vo arizasining mazmunini belgilovni normalarni kiritish kerak.

Yerga oid nizolar bo‘yicha sudda yarashtirish tartib-taomili bahslashayotgan taraflarga o‘zaro kelishmovchiliklar bo‘yicha mos yechim topishda yordam beradigan samarali usuldir. Shuning uchun xorijiy davlatlar tajribasidan kelib chiqib, dissertant yerga oid nizoli ishlar bo‘yicha ishni sud muhokamasiga tayyorlash bosqichida sudlar nizoli ishda ishtirok etuvchi taraflarning kim bo‘lishidan qat’i nazar taraflar o‘rtasida yuzaga kelgan nizoni avval yarashtirish orqali hal qilish tartib-taomilini qo‘llashlari shartligini mamlakatimiz fuqarolik protsessual qonunchilikda qat’iy belgilash taklifini ilgari suradi. Shu maqsadda O‘zbekiston Respublikasi FPKning “Arizani ko‘rmasdan qoldirish asoslari” deb nomlangan 122-moddasiga 10⁴-band sifatida “yerga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizoli ishlar bo‘yicha da’vogar nizoni javobgar bilan mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish orqali hal qilish tartibiga rioya etmagan bo‘lsa”, degan normani kiritish asoslantiriladi.

Tadqiqotchi yerga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizoli ishlarni yuritishning o‘ziga xos xususiyatlarini nazarda tutuvchi alohida bobda sudda ushbu toifadagi nizolarni muhokama qilish xususiyatlari va muddatlari, ish

yuzasidan chiqariladigan sudning hal qiluv qarori bilan bog‘liq normalar mustahkamlab qo‘yilishini taklif qiladi. Shuningdek, yerga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan boshqa turkumdagi nizolardan farqli ravishda o‘zboshimchalik bilan egallab olingan, davlat mulkida bo‘lgan yer uchastkasini qaytarish, o‘zboshimchalik bilan qurilgan imoratni buzib tashlash to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha kelishuv bitimi yoki mediativ kelishuv tuzilishiga yo‘l qo‘yilmasligi kabi normalar ham FPKda o‘z ifodasini topishi lozim degan xulosani asoslantiradi.

Dissertant yerga oid nizoli ishlarni sudda ko‘rilishida sun‘iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish masalasini o‘rganib, uning sudyaga yordamchi vosita sifatida, masalan, hujjatlarni saralash, kartografiya ma‘lumotlarini tahlil qilish yoki ish tarixini tizimlashtirishda foydali hisoblanishini, biroq yerga oid nizolarni to‘liq avtomatlashtirish katta ehtiyotkorlikni talab qilishi, sun‘iy intellekt sudyalarining mustaqil qaror chiqarish huquqiga ta‘sir qilmasligi, shaffoflik, javobgarlik, sifatli ma‘lumot va fuqarolarning ishonchi ta‘minlanmagan taqdirda, sun‘iy intellektni sud ishlarida keng qo‘llash mumkin emasligi haqida xulosaga keladi.

Dissertatsiyaning **“Sudning yerga oid ishlar bo‘yicha hal qiluv qarorlari, ularni ijro etish, xorijiy davlatlar qonunchiligining qiyosiy-huquqiy tahlili va takomillashtirish istiqbollari”** deb nomlangan uchinchi bobida yerga oid nizolarni hal qilish bo‘yicha xorijiy davlatlar qonunchilik tajribasining qiyosiy-huquqiy tahlili hamda yerga oid fuqarolik ishlari bo‘yicha sud hal qiluv qarorlari va ularni ijro etish bilan bog‘liq masalalar tadqiq qilingan.

